

ADABIYOTDA “ONA” OBRAZINING BADIY TALQINI

Habibova Feruza Hafiz qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15070322>

Annotatsiya. Ona siymosi dunyodagi barcha xalqlar uchun mo‘tabardir. Ushbu maqolada o‘zbek va jahon adabiyotida “ona” obrazining badiiy talqini ifoda etilgan.

Kalit so‘zlar: ona, adib, axloq, ona, sharq ayoli, zamon, qissa, hikoya.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА «МАТЕРИ» В ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. Образ матери важен для всех народов мира. В статье представлена художественная интерпретация образа «матери» в узбекской и мировой литературе.

Ключевые слова: мать, писатель, мораль, мать, восточная женщина, время, история, повествование.

ARTISTIC INTERPRETATION OF THE IMAGE OF "MOTHER" IN LITERATURE

Abstract. The image of the mother is important for all peoples of the world. This article presents the artistic interpretation of the image of “mother” in Uzbek and world literature.

Keywords: mother, writer, morality, mother, oriental woman, time, story, narrative.

Go‘dak dunyoga kelibdiki, uning vujudi ilk bor ona mehrini his qiladi. Bizni yuvib-o‘stirgan, issiqni issiq demasdan, sovuqni sovuq demasdan, bizning manfaatimiz, boshqalardan ortda qolmasligimiz uchun tun-u kun mehnat qilgan, faqat bolam deb yashagan inson bu bizning ota-onamizdir. Biz dunyoda yashar ekanmiz, avvalo, shu narsani anglashimiz lozim. Ona farzandi betobligida unga malham bo‘luvchi dori, zerikkanida dildosh, yig‘laganida esa quvonch baxsh etuvchi yagona zot. Faqatgina ushbu inson farzandi uchun kechalarni bedor va uyqusiz o‘tkazadi. Farzand kamoli uchun yelib yuguradi, farzandi uchun har qanday ishga qo‘l uradi.

Beminnat mehr berguvchi inson. Ona-bu so‘z negizida olam-olam ma‘no mujassam. Ona haqida qancha ta‘rif bersak shuncha kam. “Odamning qalbida qanday oliyjanob tuyg‘ular mavjud bo‘lsa, ularning barchasi avvalo onadandir”. Darhaqiqat, ta‘lim va tarbiyani birinchi bor farzand ona qornidaligidayoq olishni boshlaydi. Ko‘plab shoirlar va yozuvchilar madhini kuylab she‘rlar, dostonlar va romanlar yozgan va hali ham yozib kelishmoqda. Buning sababi esa hayotimizdagi takrorlanib bo‘lmas bo‘lgan shaxs –onadir!

O‘zbek adabiyot tarixida yaratilgan har bir asarning tub zamirida ona obrazini ko‘ramiz.

Ona obrazining yaratilishi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Tarixga nazar solar ekanmiz, jasoratli ona obrazining yaqqol timsoli sifatida “To‘maris” , “Kuntug‘mish”, “Alpomish”, “Rustamxon” kabi xalq og‘zaki ijodiga mansub dostonlarimizdagi ona obrazlarini misol qilib

olishimiz mumkin. Masalan: To‘maris – masagget xalqining jasoratli onasi. U o‘g‘lining asir tushib, o‘z joniga qasd qilganiga ham qaramay ayol bo‘la turib, xalqini dushmanlardan himoya qiladi. O‘g‘lining va bir umr dushman tomidan ezilgan xalqining o‘chini olish maqsadida jangga otlanadi. Qonga to‘ymagan dushman Kir II ning boshini qon to‘ldirilgan mesh ichiga solib, yovuzlik taqdiri naqadar ayanchli yakun topishini yana bir karra isbot qiladi. U har tamonlama jasur va mard ayoldir. O‘z o‘g‘lini yo‘qotish qanchalik og‘ir qismat ekanligini dushmanlariga ko‘rsatmaydi. Keyinchalik To‘marisning qilgan ishlari to‘g‘risida xalq dostonlari, rivoyatlar to‘qildi.

Hatto, o‘zbek yozuvchisi Mirkarim Osim “To‘maris” qissasida uni ulug‘laydi. Ibroyim Yusupov ham “To‘maris” (1974) dostonini yozgan. Ikkala yozuvchi ham yaratgan asarlarida To‘marisning qanchalik buyuk va jonkuyar ona ekanligini ochib berishgan. “Kuntug‘mish” dostonida esa Xolbeka – ona obrazi talqinida gavdalanadi. U ikki o‘g‘li dorga osilish arafasida turganda, ularning hayotlarini saqlab qolish uchun, hattoki og‘ochga nola qilishdan ham toymaydi. Bu esa o‘zbek onalarining naqadar fidokor va jonkuyar ekanligidan dalolat beradi. Nafaqat “Kuntug‘mish” dostonidagi Xolbeka obrazi balki, yana bir xalq og‘zaki ijodi namunalarimizdan biri bo‘lgan “Rustamxon” dostonidagi Huroyim ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek onalarimiz uchun janglarda g‘alaba qozonish, turli xil qahramonliklar ko‘rsatishdan tashqari, o‘z farzandini el-yurtga nafi tegadigan, xalq dardi bilan yashashga o‘rgatish ham ulkan jasoratlar sirasiga kiradi. Onalarga xos bo‘lgan bu ajoyib hislat bir erkakning jangda qozongan g‘alabasidan buyukroqdir. Yuqoridagi so‘zlarimizning isbotini Huroyim obrazida ko‘rishimiz mumkin.

Obraz yaratilish jarayonida badiiy to‘qima muhim ahamiyat kasb etadi. U asarni ta’sirchangligini oshirib, badiiy – estetik bo‘yoqdorligini oshiradi. “Zotan, butun adabiyot badiiy to‘qimalardan iborat, chunki turmush hodisalarini zamon va makon ichida sochilib yotadi”. Bu fikrlarga misol qilib O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asaridan quyidagi parchani keltirishimiz mumkin. “Oyi men keldim... eshityapsizmi oyi, men yana keldim. Qabringizni silab qo‘ysam orom olasizmi?... Mana oyijon, mana Yo‘q, yo‘q, yig‘laganim yo‘q. Hozir, hozir o‘tib ketadi...” Balki bu parchani alohida o‘qigan kitobxon unchalik hayajonga tushmas. Biroq, “Dunyoning ishlari”ni bir boshdan o‘qib, onani qattiq sevib qolgan kitobxon bu satrlarni o‘qiganda larzaga tushmay qolmaydi. Shu parchaning o‘zigina insonning qalbiga kirib, uning tub – tubida yashiringan hissiyotlarini jumbushga keltiradi. Yozuvchining “Dunyoning ishlari” qissasi hisoblanadi. Bu qissa to‘liq ravishda muhtaram onalarimizga bag‘ishlangan. Yozuvchi bu qissani turli xil hikoyalar bilan boyitgan. Qissa ichidagi har bir hikoya o‘qishga arzirli va hikmatli. Shu qissadagi “Oq, oydin kechalar” hikoyasini tahlil qiladigan bo‘lsak, yozuvchi shu mo‘jazzgina hikoya orqali ham butun bir qissa mavzusini ochib bergan desak, adashmaymiz.

Xuddi shu hikoyani o'qishimiz davomida onaning qanchalar ehtiromga sazovor ekanligini birgina yulduz timsolida talqin qilish mumkin. Asardagi kattaroq yulduz senga, menga esa kichkinasi ham bo'laveradi degan jumla taqsinga sazovordir. Yozuvchi bu jumla orqali ona farzandidan yeb turgan luqmasini ham, hatto jonini ham ayamasligini tasvirlab bergan. "Tush" hikoyasiga to'xtalib o'tsak: onamiz bizga bilmasdan xato gapirib qo'ysa, arazlaymiz, baqirib-chaqiramiz, hurmatlarini joyiga qo'ymaymiz, oddiy shirin so'zimizni, mehr-e'tiborimizni onamiz uchun ko'p ko'ramiz, gohida. Shunaqa vaziyatlar bo'ladiki, hatto, onamizga telefon qilib hol-ahvol so'rayolmay qolamiz. Xuddi shunaqa paytda mushtipar onalarimiz butun vujudlarini telefonga qaratadilar. O'g'lim yoki qizimdan telefon bo'lsamikin deb. Lekin farzand onaning bu xavotirlanishlarini his qilmaydi. Farzand onadan yiroqda bo'lsa-yu, uning qo'liga oddiygina tikan suqilsa birinchi bo'lib shu mehribon onalarimizning qalbi sezadi. Farzand bilan onaning qalbi orasida masofa bo'lmaydi. Ona uchun masofalar ahamiyatsiz. Yozuvchi yuqoridagi hikoyada farzandlarning xatolarini, so'ngida esa pushaymonliklarini tasvirlagan. Asarda farzand ikki kunlab kech kelganida onaizor uni qarshi oladi. Buni ko'rgan farzand onaga jahl qiladi.

Shunda ham ona farzandidan o'ksimaydi. Oradan vaqt o'tgach ona vafot etadi. Shu kundan boshlab hech kim boladan xavotir olmas va kech kelganida ham uni u bu kim kutib olmas edi. Bu hikoya ota-onalarimizni borida qadrlashni, xizmatlarini qilib duolarini olishni o'rgatadi. Bu qissadagi hikoyalar, hattoki, yig'lab o'qiladi. Bunga "Iltijo" hikoyasini misol qilsak bo'ladi. Bu hikoyani o'qishni boshlar ekansiz ko'zlaringizga bexosdan yosh kela boshlaydi. Bu hikoyaning qanchalar ta'sirli va yozuvchining qanchalar mahoratligini ko'rsatib beradi. Hatto, bu qismni yozuvchining o'zi ham yig'lab yozgan bo'lsa ajab emas.

Shuningdek, "ona" obrazi jahon adabiyot durdonalaridan qirg'iz xalq yozuvchisi Chingiz Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" asarida ham beqiyos aks ettirilgan. Yozuvchi bu asarida romanning bosh qahramoni Nayman ona siymosini shunday tasvirlaydiki, onaning farzandiga bo'lgan mehr – muhabbatini hech narsa bilan taqqoslab bo'lmashligini isbotlab beradi.

U farzandining vafotiga ishonmay, uning kelishini bir umr kutadi. Bir necha vaqtdan so'ng esa, o'g'li Jo'lomonning tirikligi, uni manqurtga aylanib qolganini eshitadi va o'z bolasini ko'rgani yoniga boradi. U o'g'lining hayot ekanligini bilib, shu darajada quvonib, lekin uning tanimaganidan alam va daxshatdan lablari dirrilab, shuncha urinsa ham o'zini qo'lga ololmaydi.

Ona bo'zlab yig'lab, farzandining osha tanish nigohlariga boqib, balki meni tanib qolar degan umid bilan ko'zini uzmay turadi. Qayta – qayta o'zini tanishtiradi. Vaholanki, Jo'lamon hattoki o'z ismini ham unitgan edi. Unga uning ismi Jo'lamon otasining ismi Do'nanboy ekanligini Nayman ona uqtirishga harakat qiladi. Farzandining boshidagi tuyaning terisidan yasalgan qalpoq o'zligini hatto o'z tuqqan onasini ham unittirishga sabab bo'ladi. Va u shu tariqa manqurtga aylanib qoladi.

Shu manqurtligi tufayli o'z onasining qotiliga aylanishdan ham hayiqmaydi. Chingiz Aytmatovning ushbu asarida farzandi o'z onasining umriga zomin bo'lishini ajoyib chizgilar orqali yoritib beradiki, buni o'qigan har bir insonning qalbi jumbushga keladi. Bu esa, inson sifatida o'z – o'zini anglash g'oyat murakkab jarayon ekanini va insoniyat ming yillardan beri ma'naviy ulg'aydimi yoki yo'qmi, degan muammo to'g'risida mushohada yuritishga undaydi.

Zero, onaizor qalbi xoh ming yil oldin bo'lsin, xoh hozirgi adabiy jarayon bo'lsin hech qachon o'zgarmaydi. Bu hislat onalarimizga Alloh taollo tomonidan berilgan buyuk fazilatdir.

REFERENCES

1. Shodiyevna, N. S. (2024). IN MODERN UZBEK POETRY POETIC INTERPRETATION IMAGES WATER AND FIRE. *MODERN SCIENCE*, 2181, 3906.
2. Nizomova, S. (2020). Symbolic interpretations of water and fire in modern poetry. *Интернаука*, (35), 75-76.
3. Nizomova, S. S., & Munisxon, O. (2024, February). THE SIGNIFICANCE OF THE MAIN ACTIVITY GAME IN THE EDUCATION OF CHILDREN IN THE PRESCHOOL EDUCATION ORGANIZATION. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL E-CONFERENCE" MODERN TENDENCIES OF DIGITAL EDUCATION AND WAYS OF IMPLEMENTING THEM IN THE EDUCATIONAL PROCESS"*–Brno, Czech (Vol. 1, pp. 1-5).
4. Nizomova, S. S., & Jumayeva, M. H. (2024). REPRESENTATION OF THE IMAGE OF WATER IN MODERN UZBEK POETRY. *YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS*, 3(1), 70-75.
5. Shodiyevna, N. S. (2022). The Symbolism of Fire and Water in Poetic Context. *European Journal of Innovation in Nonformal Education*, 2(2), 170-174.
6. Sultonovich, A. U. M., & Ramazonovna, S. S. (2023). Elbek–bolalar adabiyotini o'qitish metodikasining asoschisi. *Ayniy vorislari*.
7. Sultonovich, A. U. (2016). Folklore in the works of Abdurauf Fitrat. *International scientific journal «Theoretical & Applied Science»*, USA, 12-15.
8. Амонов, У. С. (2022). JADIDCHILIK HARAКATI VA «BUXOROYI SHARIF» RO'ZNOMASI: Amonov Ulug 'murod Sultonovich, BuxDUPI dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, 5, 62-67.
9. Амонов, У. С. (2020). Новые грани творческого наследия Элбека. *“Til va adabiyot ta'limi” jurnali*.
10. Amonov, U. S. *Eshonqulova MZ Buxoroning ikki farzandi haqida mulohazalar*.

11. MAQOL, A. U. O. Q. D., & AHAMIYATI, J. F. U. V. DOI: 10.53885/edinres. 2021.53. 34.124 US Amonov, BuxDU filologiya fanlari bo 'yicha falsafa doktori (PhD) MQ Salohiddinova, BuxDU boshlang 'ich ta'lim 2-bosqich talabasi. In *Научно-практическая конференция.–2022*.
12. Sultonovich, A. U. (2020). Новые грани творческого наследия Элбека.“. *Til va adabiyot ta'limi” журналы*.
13. Amanov, U. (2018). XX asr boshlarida o 'zbek folklorining o 'rganilishi tarixi (abdurauf fitrat, g'ozli olim yunusov va elbek faoliyati misolida). filologiya fanlari bo 'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati.
14. Amonov, U. (2018). History of the study of Uzbek folklore in the early twentieth century (on the example of Abduraf Fitrat, Ghazi Olim Yunusov and Elbek. Philosophy in Philosophy (PhD)... diss. auto.
15. Amonov, U. (2024). SADRIDDIN AINI'S CRITICAL VIEWS (BASED ON THE TAZKIRAH “SAMPLE TAJIK LITERATURE”). *European International Journal of Pedagogics*, 4(11), 200-207.
16. Sultonovich, A. U. (2016). Научный подход А. Фитрата к пословицам.«Современные тенденции развития науки и технологий», (8-3), 5-9.
17. Amonov, U. (2024). SADRIDDIN AINI'S CRITICAL VIEWS (BASED ON THE TAZKIRAH “SAMPLE TAJIK LITERATURE”). *European International Journal of Pedagogics*, 4(11), 200-207.
18. Amonov, U. M., Risolat, T., & Sabina, S. (2024, May). Hadislarda Barkamol, Ma'rifatli Farzandni Tarbiyalash Masalasi. In *International Conference on Linguistics, Literature And Translation (London)* (Vol. 3, pp. 54-57).
19. Sultonovich, A. U. M., & Ramazonovna, S. S. (2024). THE METHODOLOGICAL SIGNIFICANCE OF SADRIDDIN AINIY'S AUTOBIOGRAPHICAL TALE “ESKI MAKTAB” IN TEACHING CHILDREN'S LITERATURE. *MATERIALLARI*, 579.
20. Amonov, U. (2023). ABOUT SADRIDDIN AINIY'S TAZKIRAH “NAMUNAYI ADABIYOTI TOJIK”. *International Journal of Advance Scientific Research*, 3(06), 196-199.
21. Amonov, U. (2023). ABOUT SADRIDDIN AINIY'S TAZKIRAH “NAMUNAYI ADABIYOTI TOJIK”. *International Journal of Advance Scientific Research*, 3(06), 196-199.
22. Амонов, У. (2022). Размышления о научно-теоретических и практических направлениях узбекской фольклористики. *Общество и инновации*, 3(2), 18-23.
23. Amonov, U. M. ONA TILI (MORFOLOGIYA).

24. Sharipova, M. (2024). ABDUNAZAR POYONOVNING 70 YILLIK YUBILEYI DOIRASIDA “ABDUNAZAR POYONOVNING BAXSHICHILIK SAN’ATIDA TUTGAN O ‘RNI” MAVZUSIDA RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA (Ilmiy maqolalar to’plami): ABDUNAZAR POYONOVNING KUYLAGAN “ALPOMISH” VARIANTIDA MAROSIMLAR BADIY IFODASI. *Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali*, 4(4).
25. Baxshilloeyeva, S. M., & Firuzovna, R. S. (2024). KITOBXONLIK MADANIYATI ORQALI TALABALAR MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.
26. Sharipova, M., & Jabborova, D. (2024). COMMONALITIES IN THE RELATIONSHIPS OF FOLKLORE GENRES WITH LITERATURE. *Modern Science and Research*, 3(9), 170-177.
27. Sharipova, M., & Rajabova, S. (2024). SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF IMPROVING THE SPIRITUALITY OF STUDENTS THROUGH LIBRARY CULTURE. *Modern Science and Research*, 3(9), 148-155.
28. Sharipova, M., & Saidova, S. (2024). THE SKILL OF CHARACTER DEVELOPMENT IN ABDULLA QAHHOR'S STORIES. *Modern Science and Research*, 3(9), 156-162.
29. qizi Hamidova, U. F., & Sharipova, M. B. (2024, February). METHODOLOGY OF DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES OF CHILDREN OF PRESCHOOL AGE. In *INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS*. (Vol. 3, No. 1, pp. 73-82).
30. Azimov, Y., To’xsanov, Q., Adizov, B., Sharipova, M., & Hojiyeva, N. (2024). Statistical analysis of thrift and ecological education concepts in elementary school students. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 587, p. 02020). EDP Sciences.
31. Sharipova, M. (2023). “ALPOMISH” EPOSINING QADIMIYLIGI VA AN’ANAVIYLIGI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).
32. Sharipova, M. (2024). EPOS HAMDA MAROSIM MUNOSABATINING QADIMIYLIGI VA AN’ANAVIYLIGI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 46(46).
33. Sharipova, M. (2024). EPOS HAMDA MAROSIM MUNOSABATINING QADIMIYLIGI VA AN’ANAVIYLIGI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 46(46).
34. Sharipova, M. (2023). “ALPOMISH” DOSTONIDA NIKOH MAROSIMINING ARXAIK-BADIY XUSUSIYATLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).

35. Sharipova, M. (2023). "ALPOMISH" DOSTONI BADIY STRUKTURASIDA MAROSIMLARNING O 'RNI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 30(30).
36. Sharipova, M. (2020). Вестник магистратуры. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 1(1).
37. Sharipova, M. B., & Inoyatova, F. I. (2018). USE OF PROBLEM-BASED LEARNING IN THE CLASSROOM. *УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА*, (11), 69.
38. Sharipova, M. B., & qizi Shokirova, N. Z. «ALPOMISH» DOSTONI-BADIY BARKAMOL ASAR.
39. Sharipova, M. B., & qizi Salimova, K. R. "ALPOMISH" DOSTONIDA "KAMPIR O'LDI" MAROSIMI TASVIRI.
40. Sharipova, M. B. Ritual and Epic Relations in the Epic" Alpomish". *MIDDLE EUROPEAN SCIENTIFIC BULLETIN*.